

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



SOCIAL STATE AND JUSTICE IN THE POLITICAL AND LEGAL DOCTRINE OF CENTRAL ASIAN THINKERS

Firyuza Abdurashidovna Mukhiddinova

professor, doctor of legal sciences

Tashkent State Law University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: feruza.mukhiddinova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal and social state, politics, democracy, Justice

Received: 20.04.24

Accepted: 22.04.24

Published: 24.04.24

Abstract: The article analyzes the issue of forming a new scientific worldview facing the Social Sciences. Works on the formation and development of views of Eastern thinkers on society, Public Administration, Law, were scientifically studied by the author.

Attention is paid to the importance of such concepts as legal and social state, politics, democracy, legislation, Justice. Further research of the political and legal teachings of Eastern scholars from the point of view of jurisprudence has been recommended to use it extensively in the formation of a legal state, civil society.

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI SIYOSIY-HUQUQIY TA'LIMOTIDA IJTIMOIY DAVLAT VA ADOLAT MASALALARI

Firyuza Abdurashidovna Mukhiddinova

professori, yuridik fanlari doktori

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: feruza.mukhiddinova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy va ijtimoiy davlat, siyosat, demokratiya, adolat

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy fanlar oldida turgan yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalasi tahlil etilgan. Muallif tomonidan Sharq mutafakkirlarining jamiyat, davlat boshqaruvi, huquq, to'g'risidagi qarashlari shakllanishi va rivojlanishi haqida asarlar ilmiy o'rganilgan.

Huquqiy va ijtimoiy davlat, siyosat, demokratiya, qonunchilik, adolat kabi tushunchalarning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Sharq olimlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlarini huquqshunoslik nuqtai nazaridan yanada tadqiq etib, undan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat shakllanishida keng foydalanish tavsiya etilgan.

СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО И СПРАВЕДЛИВОСТЬ В ПОЛИТИКО-ПРАВОВОЙ ДОКТРИНЕ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ МЫСЛITЕЛЕЙ

Фирюза Абдурашидовна Мухитдинова.

профессор, доктор юридических наук

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовое и социальное государство, политика, демократия, правосудие

Аннотация: В статье анализируется проблема формирования нового научного мировоззрения, стоящего перед общественными науками. Автором были научно изучены работы, посвященные формированию и развитию взглядов восточных мыслителей на общество, государственное управление, право.

Уделяется внимание важности таких понятий, как правовое и социальное государство, политика, демократия, законодательство, правосудие. В дальнейшем было рекомендовано провести исследование политico-правовых учений восточных ученых с точки зрения юриспруденции, чтобы широко использовать их при формировании правового государства, гражданского общества.

KIRISH

Mamlakatimizda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olish va amalga oshirish jarayonida tarixiy, siyosiy-huquqiy ildizlarga tayangan holda, yangi zamонави g‘oyalar, yondashuvlar shakllanib bormoqda. Boshqacha aytganda, davlatchilikni rivojlantirishning hozirgi va kelgusi bosqichiga mo‘ljallangan siyosiy-huquqiy tadqiqotlarning konseptual asoslarini ishlab chiqish yurisprudensianing, qolaversa, yuridik fanning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Tabiiyki, ushbu konsepsiyaning muhim tarkibiy qismini O‘zbekistonda uzoq yillar davomida shakllangan siyosiy-huquqiy ta’limotlar tashkil etadi. Shu bois milliy davlatchilik rivojlanishining hozirgi bosqichida siyosiy-huquqiy ta’limotlardan ijodiy foydalanish, ulaarni tadqiq etish metodologiyasini shakllantirish mamlakatimizda yurisprudensiya va yuridik fan oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

ASOSIY QISM

Sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari, ayniqsa, jamiyat va davlat haqidagi qarashlari, davlatni boshqarish haqidagi fikr va takliflari davrlar osha tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning, arboblarning diqqat-e'tiborini tortib kelgan. Ularning ko'lami to'g'risida umumiylasavvur uyg'otuvchi bibliografik tadqiqotlar fikrimizga dalil bo'la oladi. Jumladan, Ibn Xallikon, Bayhaqiy, Abu-l-Faraj, Saraxsiy, Burhonuddin Marg'inoniy, Davoniylar, Koshifiy xorijiy G'arb mamlakatlarida ijod qilgan: K.Brokelman, E. Braun, K.E.Bosvort, G.Gibb, I. Goldsiyer, G. fon Gryunebaum, A. Mes, Ye.E.Rouzental, F.Rouzental, hamda Sharq arab olimlaridan Ahmad Mubarak al-Bag'dodiy, sharqshunoslardan V.V.Bartold, A.M.Bahovuddinov, Ye.E. Bertels, S.N.Grigoryan, B.G'.Gofurov, M.D.Dinorshoyev, A.M.Johid, A.X. Qosimjonov, A.V.Sagadeyev, S.Satibekova, L.R.Syukiyaynen, A.B. Xolidov, G.B. Shaymuhambetova, xususan, O'zbekiston olimlaridan I.Mo'minov, A.A.Semenov, S.P.Tolstov, M.M.Xayrullayev, T.N.Qoriniyozov, A.Yakubovskiy larning ilmiy ishlari kiradi.

Uchinchi guruh nashrlar sirasiga mavzuga oid muayyan boblarni o'z ichiga olgan U. Ahmadjonov, H. Alikulov, H. Boboyev, S. Jabborov, A. Juzjoniylar, Z. Islomov, M. Is'hoqov, S. Is'hoqov, A. Ishanov, D. Karimov, L. Kashinskaya, N. Komilov, M. Komilov, A. Mansur, Z. Muqimov, Q. Nazarov, N. Obidova, R. Obidov, H. Odilqoriyev, M. Rajabova, A. Raxmanov, D. Rahimjanov, A. Saidov, J. Toshqulov, U. Uvatov, Q. Umarova, A. Hasanov, M. Hasanov, Sh. Eshonova va B. Eshonjonovlarning darslik, monografiya, esse va boshqa asarlarini kiritish mumkin.

Tadqiqot obyekti: Sharq mutafakkirlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari, ularning davlat va uni boshqarishga oid ta'limotlari bilan bog'liq ilmiy faoliyatlarini sanaladi.

Tadqiqotning predmeti: Sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari, ular qarashlarini o'rghanish paytida yuzaga keluvchi muammolar, ularning hal etilishiga oid izlanishlar hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi dialektik, tarixiy-huquqiy, tizimli, tarkibiy-funksional, qiyosiy-huquqiy va boshqa metodlardan foydalanildi.

Buyuk ajdodlar kelajakda namunaviy davlat va jamiyat qurish va insoniyatni to'la baxtli bo'lishi uchun mukammal bo'lgan boshqaruv o'rnatilishi, maxsus organlar tashkil etilishi, mansabdar shaxslar tayinlanishi yoki saylanishi va ular faoliyatida adolat va inson manfaati eng oliy oldingi o'rinda bo'lishini asarlarida alohida ilgari surishgan. Sharq mutafakkirlarining bu ilmiy merosi, umuman o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkirlar ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish ular yashab, ijod etgan davrdanoq boshlangan. Chunki ular o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy adabiy til hisoblangan arab tilida yozishgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So‘nggi asrlarda ko‘chirilgan nusxalari ko‘p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi.

Binobarin, Sharq Uyg‘onish davri, ya’ni o‘rta asrchilik turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichida yaratilgan siyosiy-huquqiy qarashlar, falsafiy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkurini boyitish uchun qo‘shilgan ulkan hissadir. Zotan, Sharq Uyg‘onish davri o‘ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy muhitni o‘z ichiga olganki, ushbu davrning “Uyg‘onish davri” deb atalishi aslo beziz emas. Aslini olganda, Forobiyning davlat-huquqiy ta’limoti G‘arbiy Yevropa mutafakkirlarining ta’limotlaridan mazmun jihatdan ham, asosiy qoidalari ko‘ra ham sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, Forobiyning ilmiy tadqiqot usullari keyinchalik Yevropada Leonardo da Vinchi hamda Galileyning tadqiqotlarida qo‘llanilgan.

Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan fozil shahar, davlat, yetuk madaniy davlat, ma’rifatli davlat kabi ideal davlat g‘oyalari keyinchalik o‘rta asr utopist nazariyotchilari – Tomas Mor hamda Tomazzo Kampanellalar siyosiy qarashlarida rivojlantirilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlari uzoq tarixiy davr mobaynida G‘arbiy Yevropa mutafakkirlari, masalan, B.Spinosa, T.Gobss, J.Lokk, Sh. Monteske, D.Didro, P.Golbax, Volter, Gelvatsiy qarashlarida yanada rivojtirilgan hamda aynan shu qarashlar demokratiya, gumanizm to‘g‘risidagi yangidan-yangi ta’limotlar rivojiga asos bo‘lgan.

Fransuz tadqiqotchisi A.M.Guashonning fikricha: “Ibn Sino falsafiy qarashlaridagi ong va e’tiqod masalalari, G‘arb sxolastikasining asosiy maqsadini tashkil etadi”.

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlaridagi “ijtimoiy adolat” tushunchasini ikki ma’noda: ya’ni siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etsak: siyosiy huquq va erkinlik ma’nosida, yurisprudensiya nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining huquqiy kafolati ma’nosida tushunish mumkin.

Shu jihatdan Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari Yevropa Uyg‘onish davrida har bir shaxsning umumiylar farovonlik yo‘lida beg‘araz xizmat qilishini targ‘ib qiluvchi g‘oya sifatida ahamiyat kasb etgan. “Umumiy farovonlik” iborasi mazmunida respublika tuzilishi shaklidagi, fuqarolar tengligi va adolatparvarlik prinsiplariga asoslangan davlat mohiyati aks etadi. Shunga ko‘ra o‘zaro tenglik va adolat kafolatlari qabul qilinayotgan qonunlarda o‘z ifodasini topishi lozim edi.

Bizning fikrimizcha, Forobiyning huquqiy qarashlarida ilgari surilgan qonun va qonunchilikni takomillashtirish haqidagi fikrlari mashhur fransuz mutafakkiri Fransua Mari Arue Volter hamda uning zamondoshlari Sharl Lui Monteske va Jan-Jak Russolar tomonidan rivojlantirilgan, desak, xato

bo'lmaydi. Jumladan, Volterning fikricha, erkinlik chegaralari qonunlar bilan belgilanadi. Shu sababdan "huquq hukmronligi" g'oyasi G'arbda keng tarqalgan.

Volter so'z erkinligi, vijdon erkinligi, mulkning daxlsizligi kabi mavzular bilan birga, mehnat erkinligini ham targ'ib qiladi.

Zero, Forobiy, Ibn Sino qarashlarida jamiyat a'zosi o'zining sevimli kasb-koriga ega bo'lishi va erkin kasb tanlash huquqiga ega bo'lishi zarurligi qayd etilganidek, Volterning mehnat erkinligi haqidagi qarashlari fransuz jamiyatida siyosiy-iqtisodiy qarashlarning cho'qqisi, yangi davrning o'ziga xos jihatni edi. Volter feodal jamiyatni isloh qilish tarafdoi bo'lib, davlat boshqaruvida mutlaq monarxiyani afzal ko'rgan. Shuningdek, Sharqda ma'rifatparvar hukmdor g'oyasi Volterning ma'rifatli monarch haqidagi qarashlarida seziladiki, Volterning fikricha, agar monarch ma'rifatli bo'lsa, bu – jamiyat uchun foydalidir, shunda mutlaq monarxiya boshqaruvi ma'rifatli hisoblanadi. Hukmdor ega bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar faqatgina uning ma'rifatli bo'lishi bilan cheklanmasligi kerak. Jamiyatni adolatli boshqarish uchun hukmdor o'z tabaqalarining istaklarini to'g'ri anglab yetishi va marhamatli bo'lishi lozim. Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari siyosiy-huquqiy qarashlarini fransuz faylasufi Jan-Jak Russo qarashlari bilan qiyosiy tahlil etsak: Sharq mutafakkirlari fozil shahar, adolatli davlat, odil boshqaruv haqidagi fikrlari Russoning siyosiy-huquqiy qarashlaridagi kambag'al kishilar to'g'risida qayg'urish, insonlarning "tabiiy holat"ini, ya'ni hamma teng va ozod bo'lgan davrni ulug'lash haqidagi fikrlarga hamohangdir. Chunonchi, Russo o'zining "Insonlar o'rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to'g'risida mulohazalar" (1755) nomli asarida ijtimoiy tengsizlikni qoralaydi. Russoning fikricha, insonlar o'rtasidagi tengsizlikning bosh sababi – yerga bo'lgan xususiy mulkchilikdir.

Russo jamiyat, davlat va huquq mavzularini xalq suvereniteti nuqtai nazaridan turib yoritadi. Forobiyning fozil shahar va uni boshqarish xususidagi fikrlarining davomi sifatida Russoning "Ijtimoiy shartnoma" asari jahon siyosiy-huquqiy qarashlari xazinasiga qo'shilgan ulkan hissadir. Muallif fikricha, jamiyat a'zolarining shartnomaviy munosabatlari natijasida birlashuvi bilan Fuqarolik jamoasi holatining Siyosiy organizmga aylanishi jarayoni tugallanadi. Bu siyosiy organizm Davlat hisoblanadi. Ushbu uyushma (assotsiatsiya) bir butun holda – xalq, alohida ko'rildi – oliy hokimiyatda ishtirok etuvchi fuqaro, davlat qonunlariga bo'ysunuvchi tabaqa hisoblanadi. Shuningdek, Russo qarashlarida qonun va qonunchilik haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovordir.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlarining jamiyat va davlat to'g'risidagi qarashlari keyinchalik Yevropa olimlari, jumladan, Monteske ta'limotida ham o'z ifodasini topgan. Agar Forobiy, Beruniy qarashlarini eslasak, mutafakkirlar urushlarni qoralashgan, hatto Forobiy jamiyatda qonunga ehtiyoj bo'lishining sabablaridan biri sifatida urush, tabiiy ofatni ko'rsatgan bo'lsa, fransuz olimi Monteskening fikriga ko'ra, kishilar jamiyatga birlashishi bilanoq o'zlarining kuchsizliklarini unutishadi. Ular o'rtasida oldin mavjud bo'lgan tenglik yo'qoladi, alohida kishilar va xalqlar

o‘rtasida turli urushlar kelib chiqadi. “Bunday urushlarning paydo bo‘lishi, - deb yozadi Monteske, - kishilar o‘rtasida muayyan qonunlarni o‘rnatish zaruratini tug‘diradi”.(4) Natijada xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar (xalqaro huquq); hukmdorlar va boshqariluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar (siyosiy huquq); barcha fuqarolarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar (fuqarolik huquqi) vujudga keladi.

Jamiyatda yashovchi kishilarning umumiy qonunlarga ehtiyoji davlat paydo bo‘lishi zaruratini tug‘diradi. Monteske fikricha: “Jamiyat hukumatsiz yashay olmaydi. “Barcha alohida kuchlarning birlashuvi, - Gravina ta’kidlashicha, - siyosiy holat (davlat) deb nomlanadigan hodisani shakllantiradi. Alohida kishilar kuchlarining bunday birlashuvi ular erki yagonaligi, ya’ni fuqarolik holati mavjudligini bildiradi”.

Davlat (siyosiy holat) shakllanishi va umumiy qonunlar o‘rnatalishi uchun Monteske fuqarolik holati deb nomlagan kishilarning jamiyatda yashay olishi yetarlidir.

Qonun – bu, umuman olganda, barcha kishilarni boshqarib turuvchi insoniy ongdir, - deb ta’kidlaydi Monteske. Shuning uchun “har bir xalqning siyosiy va fuqarolik qonunlari ushbu ongning alohida bo‘g‘inlari bo‘lishi kerak”. Ma’lumki, har qanday jamiyatda huquq davlat bilan fuqaro o‘rtasida bog‘lovchilik rolini o‘tab kelgan. Shunga muvofiq holda, mazmun- mohiyatiga ko‘ra ikki xil boshqarish tarkib topgan. Bu haqda qadimgi mutafakkirlar ham batafsил gapirib o‘tishgan. Xukmdorning manfaatiga xizmat qiluvchi jamiyatda fuqarolarga nima qilish mumkin yoki mumkin emasligi qonunda aniq, lo‘nda belgilab qo‘yiladi va “faqat qonunda ruxsat berilgan harakatlarnigina sodir etish mumkin” degan prinsip amal qiladi.

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy merosining G‘arb olimlari ta’limotiga ta’siri haqidagi M.M.Xayrullayevning fikriga ko‘ra: «Forobiyning Sharq madaniyatidagi eng oliy xizmatlaridan biri yana shundaki, u o‘rta asr Sharqida birinchi bo‘lib fazilatli, ideal jamoa, davlat, adolatli rahbar va davlatni aql asosida boshqarish haqidagi utopik ta’limotni olg‘a surdi. Forobiy o‘zining erkin fikrlari uchun reaksiyon ruhoniylar tomonidan dinsizlikda, xudosizlikda ayblandi, so‘ngroq uning assarlari yondirildi. Lekin uning ilg‘or ratsionalistik va gumanistik fikrlari Ibn Sino, Ibn Rushd, Nizomiy, Umar Xayyom, Maymonid, Rodjer Bekon, Spinoza kabilar dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Dunyo madaniyatining rivojlanishida katta ijobjiy rol o‘ynadi».

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari, xususan, Forobiyning xayoliy orzusida bo‘lgan “fozil shahar-davlat” haqidagi; fozil davlat qurish konsepsiysi bo‘yicha qarashlari ingliz olimi, huquqshunos Tomas Morning “Utopiya” asarida ideal davlat haqidagi g‘oyasi orqali rivojlantirilgan. Jumladan, Tomas Morning siyosiy-huquqiy qarashlariga ko‘ra, shunday bir davlat (aslida xayolda) barpo etish mumkinki, bu davlat fuqarolari uchun mulk umumiy bo‘lib, barcha fuqarolar teng mehnat qilib, barchaning tengligi va erkinligi qonun bilan himoya qilinadi. Utopiyada jamiyat a’zolari va

ularning oilalari uchun birdek shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, 6 soatlik ish kuni barcha uchun umummajburiyat sifatida amal qiladi. Utopiyaning siyosiy tuzumi saylav asosida tashkil etilgan bo‘lib, markaziy va mahalliy boshqaruv xalqning ishtirokida saylovlar asosida tashkil topadi. Oliy hokimiyat – Senat bo‘lib, Senat ham saylov asosida tuziladi. Utopiyada barcha uchun amal qiladigan “Axloq kodeksi” qabul qilingan bo‘lib, uning bosh g‘oyasi insonparvarlikka, xalqparvarlikka qaratilgan. Faqat shu g‘oya bilan utopiyadagilar baxtga erishishlari qayd etilgan. Jamiyatning asosiy bo‘g‘inini oila tashkil etar ekan, Tomas Mor oiladagi muammolarni hal etish masalalarini Senatga taqdim etgan.

«Utopiya»da davlatning mansabdor shaxslari xalq xizmatidagi kishilardir. Davlat rahbari saylanadi va u knyaz nomi bilan ataladi. Mansabdor shaxslar – filarxlar deb atalgan va ular oila rahbari bo‘lib, ushbu jamiyatda axloqiy normalar yuqori baholanadi.

Xayoliy davlat g‘oyalarini rivojlantirgan italiyalik Tommazo Kampanella o‘zining «Quyosh Shahri» asarida ideal jamiyat to‘g‘risidagi fikrlarini xususiy mulkchilikning yo‘qligi, ishlab chiqarish vositalari jamiyatga qarashliligi hamda Quyosh shahri fuqarolarining barchasi mehnat qilishlari kerakligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Quyosh shahrida ayollar va erkaklar teng huquqli bo‘lib, davlat rahbari eng donishmand va bilimli fuqarodan saylangan. Davlat boshqaruvchisi diniy va dunyoviy rahbar hisoblangan.

Ibn Sino ilmiy merosi va qarashlari Dante Aligeri tomonidan rivojlantirilgan. Dante yoshligida diniy maktabda o‘qib, keyin Bolonya universitetida tahsil olgan hamda falsafa, axloq, ilohiyot, tarix, mantiq va turli xalqlar adabiyotini mustaqil ravishda o‘rgangan. Dante 1304-1308 yillarda Beatrice xotirasiga bag‘ishlangan falsafiy mazmundagi “Ziyofat” asarini hamda monarxiyaga doir siyosiy qarashlari ilgari surilgan bir qator asarlarini yaratgan.

G‘arb donishmandi o‘zining “Ziyofat” asarini o‘rtta asr dunyoqarashini o‘zida ifodalagan Sharq olimlari ta’sirida, yangi ilmiy ta’limotlarga tayangan holda, yaratgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Dante oliy insoniy xususiyatlari, ayniqsa, saxiylik, olivjanoblik haqida fikr yuritar ekan, Ibn Sino va G‘azzoliy g‘oyalariga tayangan holda yozadi: “Avvalambor, inson ruh va tanadan iborat; saxiylik ruh bilan bog‘liq. To‘g‘ri, bu haqda turli faylasuflar, turli fikrlarni bayon qiladilar. Ibn Sino va Al-G‘azzoliy ruhlar dastlab yaratishdan fazilatli yoki qabih bo‘ladi, deyishgan”.

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari, ayniqsa, Forobiy ilgari surgan kichik jamiyat, o‘rtta va buyuk jamiyat, davlatlar haqidagi ta’limot bugungi kunda amalga oshgan, o‘z tasdig‘ini topgan ta’limotdir.

Inson huquqlarining tabiiy huquqiy konsepsiyasini shakllantirishda XVI-XVIII asrlarda yashab o‘tgan ingliz huqushunosi J. Lokk, amerikalik T.Peyn va Jefferson, fransiyalik Russo, Monteske, Volter, gollandiyalik Grotsiy kabi ma’rifatparvar mutafakkirlar yetakchi o‘rin tutdilar. Ularning odamlarning tengligi, tug‘ilishdan ularga ato etilgan yashash, erkinlik va xavfsizlik kabi

huquqlarning daxlsizligiga doir g‘oyalari burjua inqiloblari va burjua davlatlarining shakllanish jarayonidagi konstitutsiyalar Angliyada 1628 yildagi «Huquqlar to‘g‘risidagi arznama», «Huquqlar to‘g‘risidagi loyiha»da, Amerikada «Virjiniya huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya» (1689), «AQSH mustaqillik deklaratsiyasi» (1776) hamda «Huquqlar to‘g‘risidagi loyiha» (1791)da, Fransiyada «Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi» (1789)da o‘z ifodasini topdi. Shu jihatdan «Virjiniya huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya» diqqatga sazovor. Bu inson huquqlari konsepsiysi bayon etilgan konstitutsiya tipidagi dastlabki xujjat edi. Unda barcha odamlar Tangri tomonidan teng qilib yaratilgan va ularga ajralmas muayyan huquqlar ato etilgan, degan qoida mavjud. Hayot kechirish, erkinlik, hamda baxt-saodatga intilish shu huquqlar sirasiga kiradi.

Zero, «Huquqshunos uchun yuz millionlab kishilarning huquq tomonidan himoya qilinishi, boshqarilishi hodisasidek teran, bahstalab mavzuni tadqiq etish va o‘rganishga sazovor bo‘lish oliy baxtdir», deb yozgan edi Baron Tornau. (7)150 yil ilgari xorijlik uchun oydin bo‘lgan bunday haqiqat biz uchun ham tushunarli bo‘lishi lozim. Buyuk faqih Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» asari sharqshunos olimlardan Brokkelman, Flyuger, Rozen, Mars, Krachkovskiy, Semenov va boshqalar diqqatini tortgan hamda ularning jiddiy xulosalariga asos bo‘lgan.

Darhaqiqat, ushbu “mumtoz asarning Yevropa tillariga ham tarjima qilingani, butun dunyoda katta qiziqish bilan o‘rganilayotgani, unga turli tillarda ko‘plab sharh va izohlar bitilgani Marg‘inoniy merosining umumbashariy ahamiyatidan dalolat beradi”. Shuning uchun ham «Hidoya» asari hozirgi kunga qadar fiqh bo‘yicha eng yaxshi qo‘llanmalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qisqasi, Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari siyosiy-huquqiy ta’limotlarining G‘arb xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlariga ta’siri bilan bog‘liq bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Umuman olganda, Sharq Uyg‘onish davri allomalariningadolatli jamiyat, olamning abadiyligi haqidagi g‘oyalari Yevropa Uyg‘onish davriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, bu tarixiy haqiqatdir. Ayni paytda yuqorida nomlari zikr etilgan mutafakkirlar zamonida musulmon Sharqi mamlakatlarda uyg‘onish va o‘sish davri o‘z cho‘qqisiga chiqib, keyingi taraqqiyot bosqichini G‘arbgaga uzatdi, desak, aslo xato bo‘lmaydi.

Mustaqillik tufayli O‘zbekiston o‘tmish mutafakkirlarining davlat, boshqaruv, hokimiyat to‘g‘risidagi taraqqiyparvar ta’limotlari va g‘oyalaridan to‘liq foydalanib, o‘zining tarixiy hamda an’anaviy o‘ziga xosligidan kelib chiqib, o‘z maqsadlarini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi. Shu bois endilikda biz respublikamizni mukammal milliy davlatchilikka olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limizni tanlab oldik. Ammo hozir bugungi kun ertangi kunga o‘xshamaydi, tub o‘zgarish va yangilanishlar davri murakkab bo‘lib, ba’zan hatto maqsadni belgilash qiyin kechishi tabiiy. Bu – ayni haqiqat. Birinchidan, hozirgi kunda o‘tmish ijtimoiy-huquqiy merosining oqilona jihatlarini zamonaviy milliy davlatchilik konsepsiyasida qo‘llash yoki unga o‘tkazishga imkon beradigan umumiy to‘qnashish nuqtalarini topish o‘ta murakkab va qiyin. Ikkinchidan, Sharq

va G‘arb modellari o‘zaro uyg‘unlashtirilganda doimo ham davlat tuzilmasining maqbul variantlarini beravermaydi. Shunday bo‘lsa-da, respublika qabul qilgan bu variantni o‘tmish tajribasi va shu kun ta’sirining ilmiy natijasi hamda ilmiy asoslangan vorisligi deyish mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish g‘oyasini amalgga oshirish samarasi ko‘p jihatdan o‘tmish ijtimoiy-huquqiy merosining oqilona yo‘nalishlarini milliy davlatchiligidiz konsepsiyasida qay darajada qo‘llay olishimizga bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA

Sharq mutafkkirlarining jamiyat va davlatning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi haqidagi qarashlari tahlil etildi;

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolarning jamiyat va davlatning mohiyati, davlatni boshqarish shakllari haqidagi g‘oyalari ko‘rib chiqildi;

Olimlarining qonunlar, ularni hayotga tatbiq etish va qonunchilikni takomillashtirish haqidagi qarashlari, shu bilan birga, huquqiy madaniyat muammolari bilan bog‘liq ta’limotlari tadqiq etilib, adolat tushunchasi birinchi bor siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan o‘rganib talqin etildi, jumladan, mutafakkirlarning adolatga bo‘lgan umumiyligi qarashlari ilohiy, kalom ilmi bilan talqin etilsa, dunyoviy nuqtai nazardan adolat qaror topishi odil xukmdorga bog‘liq, adolat muammolarining yechilishi ahloqiy ta’limotlardandir.

Shuningdek, fuqarolarning polisdagi tengligi, davlat va hukmdorlarning jamiyat a’zolari oldidagi mas’uliyatlari qadimgi Yunon mutafakkirlari ta’limotlarining asosiy xususiyati bo‘lib, ushbu ta’limot sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilganligi, odil hukmdor-adolatli davlat timsoli g‘oyasi umumlashtirildi;.

Sharq olimlari siyosiy-huquqiy ta’limotlarining Sharq va G‘arb xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari rivojiga ta’siri yoritildi;

Sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlari bugungi kun va yurisprudensiya nuqtai nazaridan o‘rganilib, eng muhim xulosalar, taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Nasr Al-Farabi. Politika // Vostochnaya filologiya. Dushanbe, 1973. -Vip.2. – S.102–178.
2. Al-Farabi. Sotsialno-eticheskiye traktati. –Alma-Ata: Nauka, 1973. -400s.
3. Al Kindi. O pervoy filosofii // Izbrannie proizvedeniya misliteley stran Blyzhego i Srednego Vostoka. – M., 1961. – S. 57–106.
4. Al Farabi. Traktat o vzglyadax jiteley dobrodetelnogo goroda // Filosofskiye traktati. – Alma Ata: Nauka, 1970. – S. 193–378.
5. M. Guashon. Vliyaniye Avitsenni na Zapade // Ibn Sino i srednevekovaya filosofiya. - Dushanbe: Donish, 1981. –C. 157.

6. Frolova Ye. A. Individualnoye bitiye, iskomoye, no ne naydennoye // Srednevekovaya arabskaya filosofiya. Problemi i resheniya. – M.: Vostochnaya literatura RAN, 1998. – S. 115–145.
7. Al Farabi Abu Nasr Muxammed. Istoriko- filosofskiye traktati./ Per.s arab. – Alma-Ata: Nauka, 1985. – S. 623.
8. Al-Farabi. Filosofskiye traktati. – Alma-Ata: Nauka, 1972. -445 s.
9. Ostroumov N.P. Islamovedeniye. Shariat po shkole mazhab Abu Xanifa. – S. 23..
10. Grigoryan S.N. Velikiye misliteli Arabskogo Vostoka. (Ibn Badjja, Ibn Tufeyl, Ibn Rushd). – M.: Znaniye, 1960. - 24 s.
11. Djaxid A.M. Nekotorie voprosi teorii gosudarstva v vozzreniyax Abu Nasr al-Farabi. – Dushanbe: Irfon, 1963. -24 s.
12. Djaxid A. M. Abu Nasr al-Farabi o gosudarstve. Dushanbe: Donish, 1966. -118 s.